

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR MULOQOTIDAGI QIYINCHILIKLARGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich doktoranti

Ashurova Shaxnoza Faxriddin qizi

+998942652444 Shaxnoza1297@gmail.com

Annotatsiya: Kichik maktab yoshidagi bolalar (6-10 yosh) muloqot jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu yosh davri bola shaxsining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, unda ijtimoiy muhitga moslashish, his-tuyg‘ularni boshqarish va o‘z fikrlarini ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Kalit so‘zlar: Muloqot, qiyinchiliklar, psixologik yondashuv, agressivlik, tajovizkorlik, nutq,

Muloqot bola shaxsini rivojlanishining muhim omilidir. Muloqotda shaxsiy munosabatlar shakllanadi va tashqi dunyo bilan munosabatlarning tabiati ko‘p jihatdan bolaning qanday fazilatlarini rivojlanishiga bog‘liqdir. Muloqot har bir davrda o‘ziga xos holda amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ham o‘yin faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular endi o‘yinchoqlar bilan emas, balki ko‘proq harakatli, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Ular harakatli o‘yinlar o‘ynashi davomida nutq orqali tevarak –atrof bilan bevosita verbal aloqa o‘rnatadilar. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson shaxsiyatining shakllanishi muloqotda birinchi navbatda, muhim odamlar (otaonalar, o‘qituvchi, tengdoshlar va boshqalar) bilan bevosita muloqotda bo‘ladi. Buning natijasida eng muhim xususiyatlar, axloqiy fazilatlar va dunyoqarashi o‘ziga boradi. Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Bunga sabab bir tomondan o‘qituvchining faol ta’siri bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘quv jamoasining ko‘rsatadigan ta’siridir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar sinfida jamoa bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi o‘quvchilar bor: gipermuloqotchan (sergap) bolalardan dars holatidan qo‘rqadigan: javob berishga uyaladigan, tortinchoq yoki darsga quloq solmaydigan o‘quvchilar ham bo‘lishi mumkin. Ularda maktab davrigacha oilada, bog‘chada muloqot ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi.

Muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish

O‘ziga ishonchsiz bolalar uchun individual yondashuv va rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish. Nutqiy muammolari bo‘lgan bolalar bilan logopedik mashg‘ulotlar

tashkil qilish. Tajovuzkorlik yoki tortinish kabi xulq-atvor muammolarini psixologik maslahat va o‘yin terapiyasi orqali bartaraf etish. Oila va o‘qituvchi bilan hamkorlik Ota-onalar va o‘qituvchilarga bolalar bilan samarali muloqot qilish bo‘yicha tavsiyalar berish. Uy sharoitida ham muloqotni rivojlantirish uchun kitob o‘qish va suhbat qurish an‘anasini shakllantirish. Maktabda psixologik yordam xizmati orqali bolalarning muloqot muammolarini nazorat qilish. Ba’zi bolalar so‘z boyligining cheklanganligi yoki nutqiy muammolar (logopedik muammolar) tufayli o‘z fikrlarini to‘liq yetkaza olmaydi. Bu ularning o‘zaro munosabatlariga ta’sir qiladi. Bolalar guruhda o‘zini qanday tutish, nizolarni hal qilish va hamkorlik qilish bo‘yicha tajribaga ega emas. Bu ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga olib keladi. Jismoniy va psixologik tortinishlar uyalish, o‘ziga ishonchsizlik yoki ortiqcha tortinish natijasida ba’zi bolalar jamoadagi muloqotdan chetda qoladi. Ota-ona va muhit ta’siri Farzandning muloqot qobiliyatlari oilaviy tarbiya va atrof-muhit omillariga bog‘liq. Ota-onaning qattiqqo‘l yoki beparvo munosabati bolaning muloqot qobiliyatlarini susaytirishi mumkin.

Psixologik yondashuvlar Nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bolalarga so‘z boyligini oshirish uchun interaktiv o‘yinlar o‘tkazish. Logoped va pedagoglar bilan hamkorlik qilish. Hikoya aytish va rolli o‘yinlar orqali nutq faoliyatini rivojlantirish. Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish Jamoaviy faoliyatlarni tashkil etish. Empatiya va hamdardlik bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish. Qiziqarli vaziyatli o‘yinlar orqali ijtimoiy muammolarni hal qilish usullarini o‘rgatish. O‘ziga ishonchni oshirish bolalarni rag‘batlantirish va ijobiy fikrlashga o‘rgatish. Psixologik mashg‘ulotlar orqali o‘zini ifodalashga rag‘batlantirish. O‘ziga ishonchsiz bolalar bilan individual ishlash. Agressivlikni kamaytirish va his-tuyg‘ularni boshqarish His-tuyg‘ularni ifodalash uchun maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish. San’at terapiyasi (chizish, rasm ishlash, qo‘g‘irchoq teatri) orqali hissiyotni ifodalash.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish usullarini o‘rgatish. Oilaviy va o‘qituvchi bilan hamkorlik Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etish. Bolaning muloqotiga ta’sir qiluvchi muhitni tahlil qilish va yaxshilash. Maktab va uy sharoitida psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muloqot muammolari ularning ijtimoiy va ruhiy rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etishda psixologik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalar birgalikda ishlashlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashurova Shakhnoza Fakhridin Kizi (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF MORAL CHARACTERS THROUGH COMMUNICATION IN PRIMARY SCHOOL AGE. Eurasian Journal of Academic Research, 4 (5-2), 105-108. Doi: 10.5281/zenodo.11235234
2. Ashurova, S. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI SAMARALI MULOQOTGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS USULLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 111-116.
3. Ashurova, S. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI PSIXOLGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 441-444.